
“Yangi O‘zbekiston - yangi saylovlar” milliy aksiyasi o‘tkazilmoqda
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlari
uchun o‘tkaziladigan saylovlar yaqinlashmoqda.

Saylovlarda o‘zimiz munosib deb topgan nomzodga ovoz berish orqali biz kelgusi yo‘nalishlarimizni belgilaymiz. Umumiy kelajagimizni qurishda har birimizning ovoqimiz muhim hisoblanadi. Saylovlarda qatnashib, biz o‘zimizning dunyoqarashimiz, siyosiy va huquqiy savodxonligimiz, fuqarolik pozitsiyamizni namoyish etamiz hamda konstitutsion huquqimizdan foydalanamiz.

Bugun Qo‘sh-tepa tumani markazidagi 15-sonli bolalar musiqa va san‘at maktabida “Yangi O‘zbekiston - yangi saylovlar” milliy aksiyasi doirasida tadbir tashkil etildi.

Tadbirda tuman hokimi I. Novikov so‘zga chiqib, mamlakatimiz muhim siyosiy jarayonlar arafasida ekanligi, 22-dekabr kuni parlamentga va xalq deputatlari mahalliy kengashlariga o‘tkaziladigan saylovlarda har bir fuqaro faol ishtirok etishi lozimligini ta’kidladi.



Tadbir davomida saylovchilarning siyosiy savodxonligi sinovdan o'tkazish maqsadida saylovga oid savollar berildi hamda birinchilardan bo'lib to'g'ri javobni aytgan ishtirokchilar tuman hokimligining esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.





2019-12-14 14:50:27